



RAQAMLI MEHNAT BOZORI VA INSON KAPITALI

Abdurahmonov Asilbek

Namangan davlat universiteti

ORCID: 0009-0004-2472-1619

asilbekabdurahmonovv@icloud.com

Tursinbayev Azizbek

Namangan davlat universiteti

ORCID: 0009-0009-5300-9934

azizbektursinbayev005@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada platforma iqtisodiyoti sharoitida shakllanayotgan raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy va konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli platformalar orqali tashkil etilayotgan mehnat munosabatlarining institutsional xususiyatlari, algoritmik boshqaruv mexanizmlari hamda inson kapitalidan foydalanishning yangi shakllari yoritilgan. Muallif raqamli mehnat bozorini an'anaviy mehnat munosabatlaridan tubdan farq qiluvchi mustaqil iqtisodiy institut sifatida talqin qilib, "cloud work", "crowd work" va "gig work" segmentlari doirasida mehnatning fragmentatsiyalashuvi jarayonini asoslab beradi. Maqolada inson kapitalining raqamli iqtisodiyot sharoitida klassik ishlab chiqarish omilidan ma'lumot ishlab chiqaruvchi va platforma qiymatini oshiruvchi resursga aylanishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli mehnat bozori, platforma iqtisodiyoti, inson kapitali, platforma kapitalizmi, algoritmik boshqaruv, "gig work", "crowd work", "cloud work", mehnat fragmentatsiyasi, ijtimoiy himoya.

ЦИФРОВОЙ РЫНОК ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

Абдурахмонов Асылбек

Наманганский государственный университет

Турсинбаев Азизбек

Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье теоретически и концептуально анализируется взаимосвязь между цифровым рынком труда, формирующимся в условиях платформенной экономики, и человеческим капиталом. В исследовании раскрываются институциональные особенности трудовых отношений, организуемых через цифровые платформы, механизмы алгоритмического управления, а также новые формы использования человеческого капитала. Автор интерпретирует цифровой рынок труда как самостоятельный экономический институт, принципиально отличающийся от традиционных трудовых отношений, и обосновывает процесс фрагментации труда в рамках сегментов "cloud work", "crowd work" и "gig work". В статье показано превращение человеческого капитала в условиях цифровой экономики из классического фактора производства в ресурс, производящий данные и повышающий ценность платформы.

Ключевые слова: цифровой рынок труда, платформенная экономика, человеческий капитал, платформенный капитализм, алгоритмическое управление, "gig work", "crowd work", "cloud work", фрагментация труда, социальная защита.

DIGITAL LABOR MARKET AND HUMAN CAPITAL

Abdurahmonov Asilbek
Namangan State University
Tursinbayev Azizbek
Namangan State University

Abstract. *This article provides a theoretical and conceptual analysis of the interrelationship between the digital labor market emerging under the conditions of the platform economy and human capital. The study examines the institutional characteristics of labor relations organized through digital platforms, the mechanisms of algorithmic management, as well as new forms of utilizing human capital. The author interprets the digital labor market as an independent economic institution fundamentally different from traditional labor relations and substantiates the process of labor fragmentation within the segments of cloud work, crowd work, and gig work. The article demonstrates the transformation of human capital in the digital economy from a classical factor of production into a resource that generates data and increases platform value.*

Keywords: *digital labor market, platform economy, human capital, platform capitalism, algorithmic management, gig work, crowd work, cloud work, labor fragmentation, social protection.*

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiy tizimning deyarli barcha bo'g'inlariga, xususan mehnat bozori va inson kapitali shakllanish mexanizmlariga tub ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayoni ishlab chiqarish, xizmatlar va boshqaruv sohalarida yangi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltirib, an'anaviy mehnat munosabatlarining institutsional asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Aynan shu jarayonlar fonida platforma iqtisodiyoti, raqamli mehnat bozori va raqamli ishchi kuchi tushunchalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy kategoriyalariga aylanmoqda.

Platforma iqtisodiyotining kengayishi bilan mehnatga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi munosabatlar tobora ko'proq raqamli platformalar orqali muvofiqlashtirilmoqda. Amazon, Uber, Airbnb, Google kabi yirik platformalar nafaqat tovar va xizmatlar almashinuvini tashkil etuvchi vositachi sifatida, balki mehnat resurslarini jalb etish, boshqarish va baholash mexanizmlarini belgilovchi markaziy iqtisodiy subyekt sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bu holat mehnat bozorining makon va vaqt bilan bog'liq an'anaviy cheklovlarini sezilarli darajada zaiflashtirib, talab bo'yicha ishlaydigan moslashuvchan mehnat shakllarining tez sur'atlarda kengayishiga olib kelmoqda.

Raqamli mehnat bozori mazkur jarayonlarning institutsional ifodasi bo'lib, unda mehnat munosabatlari asosan qisqa muddatli shartlar, algoritmik boshqaruv, reyting tizimlari va platforma vositachiligi orqali tartibga solinadi. Bunday sharoitda ishchi kuchi ko'pincha mustaqil pudratchi sifatida tasniflanadi, biroq amalda platformaga kuchli darajada iqtisodiy va texnologik qaram bo'ladi. Natijada mehnatning barqarorligi, ijtimoiy kafolatlar va huquqiy himoya masalalari ikkilamchi ahamiyat kasb etib, mehnat munosabatlarida asimmetrik kuch muvozanati yuzaga keladi.

Raqamli mehnat bozorining shakllanishi bilan bir qatorda inson kapitali tushunchasi ham sifat jihatdan yangi mazmun bilan boyimoqda. Klassik iqtisodiy nazariyada inson kapitali asosan ta'lim darajasi, kasbiy malaka va ish tajribasi orqali baholangan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu omillarga qo'shimcha ravishda raqamli ko'nikmalar, texnologik moslashuvchanlik, algoritmik muhitda ishlash qobiliyati va platforma infratuzilmasiga integratsiyalashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot inson

kapitalining nafaqat miqdoriy, balki tarkibiy va funksional jihatdan qayta shakllanishiga olib kelmoqda.

Platforma kapitalizmi doirasida inson kapitali an'anaviy ishlab chiqarish omili sifatida emas, balki ma'lumotlar ishlab chiqaruvchi va platforma qiymatini oshiruvchi resurs sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli ishchi kuchi tomonidan bajarilayotgan vazifalar ko'pincha mayda bo'laklarga ajratilgan, qisqa muddatli va past haq to'lanadigan xarakterga ega bo'lib, ularning yig'indisi platformalar uchun katta hajmdagi iqtisodiy qiymat yaratadi. Shu bilan birga, ushbu qiymatning asosiy qismi platforma egalari va investorlar foydasiga taqsimlanib, inson kapitalining iqtisodiy hissasi yetarli darajada kompensatsiya qilinmasligi muammosi yuzaga kelmoqda.

Raqamli mehnat bozori doirasida cloud work, crowd work va gig work kabi mehnat shakllarining keng tarqalishi inson kapitalining fragmentatsiyalashuviga olib kelmoqda. Ishchi o'z kasbiy identifikatsiyasini yaxlit faoliyat sifatida emas, balki turli platformalarda bajariladigan alohida vazifalar majmui sifatida namoyon etadi. Bu holat mehnatning atomlashuvi jarayonini kuchaytirib, daromad barqarorligi, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy himoya masalalarini yanada murakkablashtirmoqda.

Mazkur jarayonlar fonida raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli platformalar tomonidan shakllantirilayotgan yangi mehnat munosabatlari nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ham muhim oqibatlarga ega.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli mehnat bozori sharoitida inson kapitalining shakllanishi, undan foydalanish mexanizmlari va iqtisodiy qiymatini aniqlash, shuningdek, platforma iqtisodiyoti doirasida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni tizimli ravishda yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat siyosati, ijtimoiy himoya mexanizmlari va inson kapitalini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli mehnat bozori va inson kapitali masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda platforma iqtisodiyoti doirasida shakllanayotgan yangi ilmiy yo'nalish sifatida talqin etiladi. Tadqiqot manbalarida platforma iqtisodiyoti raqamli texnologiyalar asosida mehnat munosabatlarini qayta tashkil etuvchi institutsional tizim sifatida izohlanadi hamda raqamli mehnat bozori ushbu tizimning markaziy va funksional yadrosi sifatida asoslanadi. Xususan, Srnicek (2017) platformalarni nafaqat texnologik infratuzilma, balki ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ularni kapitalga aylantirish orqali iqtisodiy qiymat yaratadigan institutsional mexanizm sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, platforma iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori algoritmik boshqaruv, tarmoq effektlari va ma'lumotlar ekstraksiyasiga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, Stefano (2016) tadqiqotlarida raqamli mehnat bozori "talab bo'yicha" shakllanadigan va qisqa muddatli vazifalarga asoslangan mehnat modeli sifatida tahlil qilinadi. Muallif platformalar mehnatni an'anaviy bandlik shakllaridan ajratib, uni algoritmlar orqali boshqariladigan, reyting tizimlari bilan nazorat qilinadigan va institutsional himoyadan chetlatilgan faoliyatga aylantirayotganini ta'kidlaydi. Bu jarayon raqamli mehnat bozorini platforma iqtisodiyotining asosiy ishlovchi mexanizmi sifatida shakllantiradi.

Bir qator darslik va monografik tadqiqotlarda ham platformalarning roli oddiy vositachilik funksiyasi bilan cheklanmasligi qayd etiladi. Platformalar mehnat jarayonlarini fragmentatsiyalash, ishchi kuchi faoliyatidan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu ma'lumotlar asosida iqtisodiy qiymatni markazlashtirish orqali mehnat munosabatlarining institutsional tuzilmasini o'zgartiruvchi struktura sifatida talqin qilinadi. Natijada raqamli mehnat bozori

platforma iqtisodiyotining ikkilamchi elementi emas, balki inson kapitalidan foydalanishning asosiy shakliga aylanadi.

Raqamli mehnat bozori cloud work, crowd work va gig work kabi mehnat shakllari orqali tasniflanib, ushbu shakllar orqali mehnatning atomlashuvi, fragmentatsiyalashuvi va moslashuvchanlik asosida qayta tashkil etilishi ko'rsatib beriladi. Manbada raqamli ishchi kuchi mustaqil pudratchi sifatida tasniflansa-da, uning platformaga texnologik va iqtisodiy qaramligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu holat mehnat munosabatlarida asimmetrik kuch muvozanati va ijtimoiy himoyaning zaiflashuvi bilan tavsiflanadi

Inson kapitali masalasi platforma kapitalizmi modeli orqali talqin qilinib, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali klassik iqtisodiy kategoriya doirasidan chiqib, ma'lumot ishlab chiqaruvchi, algoritmik tizimlarga integratsiyalashgan va platforma qiymatini oshiruvchi resurs sifatida talqin etiladi. Manbada inson kapitalining fragmentatsiyalashuvi, moslashuvchanlikka asoslangan baholanishi va "o'z vaqtida ishchi kuchi" modeli doirasida barqarorlikdan voz kechish tendensiyasi konseptual asosda yoritiladi

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni platforma iqtisodiyoti, algoritmik boshqaruv va mehnat atomlashuvi konsepsiyalari orqali tushuntirib beradi hamda mazkur tadqiqot uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda konseptual-tahliliy metodologiya qo'llanildi. Asosiy metod sifatida tizimli tahlil va institutsional yondashuv tanlandi. Tadqiqot platforma iqtisodiyoti, raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqishga asoslanadi.

Metodologik asos quyidagi yondashuvlardan iborat:


- Strukturaviy tahlil – raqamli mehnat bozorining cloud work, crowd work va gig work segmentlariga ajratilgan tasnifi asosida mehnat shakllarining tuzilishini aniqlash;
- Funktsional tahlil – platformalarning mehnatni boshqarish, baholash va taqsimlash mexanizmlarini tahlil qilish;
- Institutsional yondashuv – platforma kapitalizmi doirasida mehnat munosabatlarining huquqiy va iqtisodiy transformatsiyasini baholash;
- Konseptual modellash – raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi aloqalarni nazariy model sifatida shakllantirish.

Empirik bosqich keyingi bo'limlarda rasmiy statistika agentliklari ma'lumotlari, jadval va rasmiy formulalar asosida amalga oshiriladi. Mazkur bo'lim esa tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'tkazilgan nazariy va statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, platforma iqtisodiyoti sharoitida raqamli mehnat bozori mehnat munosabatlarining mustaqil va institutsional jihatdan alohida shakliga aylanmoqda. Ushbu bozor doirasida mehnat resurslaridan foydalanish mexanizmlari, inson kapitalining iqtisodiy baholanishi hamda daromadlarni taqsimlash tamoyillari an'anaviy mehnat bozoridan tubdan farq qiladi. Natijalar platformalar nafaqat mehnatga bo'lgan talab va taklifni muvofiqlashtirayotganini, balki mehnat jarayonining ichki tuzilmasini algoritmik asosda qayta shakllantirayotganini tasdiqlaydi (Srniczek, 2017).

Statistik baholashlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda raqamli platformalar orqali band bo'lgan ishchi kuchi ulushi izchil ravishda oshib bormoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (2021) ma'lumotlariga tayangan holda, platforma asosidagi bandlik shakllari, ayniqsa cloud work va gig work segmentlarida tez sur'atlarda kengaymoqda. Bu holat mehnat bozorida hududiy chegaralarning zaiflashuvi va mehnat resurslarining globallashuvi bilan izohlanadi.



1-rasm. Raqamli mehnat bozorida bandlik shakllarining tarkibi (global baholash, %) (ILO, 2021)

Diagramma ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli mehnat bozorida masofaviy va qisqa muddatli bandlik shakllari ustunlik qilmoqda. Bu holat Srnicek (2017) tomonidan tavsiflangan platforma kapitalizmi modelini amaliy jihatdan tasdiqlaydi, ya'ni platformalar mehnatni moslashuvchan, bo'laklangan va tez almashtiriladigan resurs sifatida tashkil etmoqda.

Raqamli mehnat bozorida inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi an'anaviy bandlikdan farqli ravishda baholanadi. Tadqiqotda inson kapitalidan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun quyidagi formula qo'llanildi:

$$HK_e = \frac{Y_p}{T_h}$$

bu yerda:

HK_e – inson kapitalidan foydalanish samaradorligi;

Y_p – platforma orqali olingan jami daromad;

T_h - sarflangan mehnat vaqti (soatlarda).

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, yuqori reytingga ega bo'lgan raqamli ishchilar uchun HK_e/HK_e ko'rsatkichi nisbatan yuqori bo'lsa-da, ishchi kuchining asosiy qismi uchun bu ko'rsatkich past va beqaror bo'lib qolmoqda. Bu holat Stefano (2016) tomonidan ta'riflangan "o'z vaqtida ish" modeliga mos keladi, ya'ni ishchi kuchi doimiy bandlik emas, balki vazifadan vazifaga o'tish orqali daromad topadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, platforma iqtisodiyoti sharoitida inson kapitali yaxlit kasbiy resurs sifatida emas, balki alohida vazifalar majmui sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehnat jarayonining mikro-vazifalarga bo'linishi inson kapitalining fragmentatsiyalashuviga olib keladi. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkich orqali ifodalandi:

$$F_i = \frac{N_t}{N_s}$$

bu yerda:


F_i – fragmentatsiya indeksi;

N_t – bajarilgan vazifalar soni;

N_s – ishchi tomonidan taklif etilgan asosiy ko'nikmalar soni.

Fragmentatsiya indeksining yuqori qiymati inson kapitalining bo'laklanganligini va kasbiy identifikatsiyaning susayganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, crowd work va microtasking segmentlarida ushbu indeks eng yuqori darajada namoyon bo'ladi (Srnicek, 2017).

Statistik tahlil raqamli mehnat bozorida daromadlarning notekis taqsimlanganini ko'rsatdi. Platformalar tomonidan qo'llaniladigan algoritmik reyting va baholash tizimlari yuqori daromadlarning cheklangan ishchilar guruhi qo'lida jamlanishiga olib kelmoqda.



2-rasm. Raqamli mehnat bozorida daromadlarning taqsimlanishi.

Diagramadan ko'rinib turibdiki, ishchilarning yarmi umumiy daromadning beshdan bir qismidan kamiga ega. Bu holat algoritmik boshqaruv mexanizmlarining inson kapitalining real iqtisodiy hissasini to'liq aks ettirmasligini ko'rsatadi. Srnicekning fikricha, algoritmlar mehnat jarayonini shaffof bo'lmagan tarzda boshqarib, iqtisodiy qiymatni platforma foydasiga markazlashtiradi (Srnicek, 2017).

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli mehnat bozori moslashuvchanlikni oshirgan bo'lsa-da, inson kapitali uchun ijtimoiy xavflarni kuchaytiradi. Platforma orqali ishlovchi ishchilarning katta qismi ijtimoiy sug'urta, mehnat ta'tili va pensiya tizimlaridan tashqarida qolmoqda. Bu holat Stefano (2016) tomonidan mehnatning institutsional himoyadan chiqarilishi sifatida baholanadi.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, platforma iqtisodiyoti sharoitida raqamli mehnat bozori qisqa muddatda inson kapitalidan foydalanish intensivligini oshiradi, biroq uzoq muddatda daromad beqarorligi, fragmentatsiya va ijtimoiy himoyaning zaiflashuvi hisobiga tizimli xavflarni kuchaytiradi. Platformalar tomonidan iqtisodiy qiymatning markazlashtirilishi inson kapitalining real hissasini kamaytirib, mehnat munosabatlarida yangi institutsional muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Olingan natijalar platforma iqtisodiyoti sharoitida raqamli mehnat bozorining inson kapitaliga ta'siri murakkab va ziddiyatli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Natijalar bo'limida aniqlangan bandlikning moslashuvchanlashuvi, inson kapitalining fragmentatsiyalashuvi va daromadlarning notekis taqsimlanishi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bilan mantiqan mos keladi. Xususan, raqamli platformalar tomonidan mehnat jarayonining algoritmik boshqarilishi mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatini qayta belgilayotgan asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bir qator tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, platformaga asoslangan mehnat shakllari inson kapitalini klassik ishlab chiqarish omili sifatida emas, balki bo'laklangan va vazifalarga parchalanib ketgan resurs sifatida namoyon qiladi. Standing (2011) bu jarayonni "beqaror ishchi kuchi" shakllanishi bilan izohlaydi va platforma iqtisodiyoti sharoitida mehnat barqarorligining yo'qolishi inson kapitalining uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini cheklashini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarida aniqlangan daromad beqarorligi va kasbiy identifikatsiyaning susayishi bilan mantiqan uyg'unlashadi.

Natijalarda aniqlangan inson kapitalining fragmentatsiyalashuvi Supiot (2021) tomonidan ilgari surilgan "mehnatning huquqiy atomlashuvi" konsepsiyasi bilan hamohangdir. Supiotga (2021) ko'ra, raqamli mehnat shakllari mehnatni yagona ijtimoiy-huquqiy munosabat

sifatida emas, balki alohida iqtisodiy tranzaksiyalar yig'indisi sifatida talqin qiladi. Bu holat platforma ishchilarining ijtimoiy himoyadan chetda qolishiga va inson kapitalining faqat qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlik mezonlari orqali baholanishiga olib keladi.

Shuningdek, muhokama natijalari raqamli platformalar tomonidan yaratilayotgan algoritmik boshqaruv tizimlari inson kapitalining real iqtisodiy hissasini yashirayotganini ko'rsatadi. Zuboff (2019) o'z tadqiqotlarida platforma iqtisodiyotini "kuzatuv kapitalizmi" doirasida tahlil qilib, platformalar foydalanuvchilar va ishchilarning faoliyatidan olingan ma'lumotlarni markazlashtirish orqali iqtisodiy ustunlikka erishishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv natijalarda aniqlangan daromadlarning yuqori darajada markazlashuvi va algoritmik reytinglarning hal qiluvchi roli bilan to'liq mos keladi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, raqamli mehnat bozori inson kapitali uchun ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, platformalar mehnat bozoriga kirish to'siqlarini pasaytirib, moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, mehnatning institutsional kafolatlaridan voz kechilishi, ijtimoiy himoyaning zaiflashuvi va kasbiy rivojlanishning uzluksiz emasligi inson kapitalining sifat jihatdan yemirilishiga olib kelishi mumkin. Bu holat Sen (1999) tomonidan ilgari surilgan "inson imkoniyatlari" yondashuvi nuqtai nazaridan inson kapitalining faqat daromad emas, balki barqaror imkoniyatlar orqali baholanishi zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli mehnat bozori platforma iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalini yanada moslashuvchan, biroq kamroq himoyalangan iqtisodiy resursga aylantirmoqda. Agar institutsional va huquqiy mexanizmlar moslashtirilmasa, ushbu jarayon uzoq muddatda nafaqat individual ishchilar, balki butun mehnat bozori barqarorligi uchun tizimli xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli raqamli mehnat bozorini tartibga solishda inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda uning ijtimoiy barqarorligi va rivojlanish imkoniyatlari ham inobatga olinishi zarur.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot platforma iqtisodiyoti sharoitida shakllanayotgan raqamli mehnat bozori va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab, ko'p qirrali va ziddiyatli xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli platformalar mehnat bozorida an'anaviy institutsional mexanizmlarni tubdan o'zgartirib, inson kapitalidan foydalanishning yangi modelini shakllantirmoqda. Ushbu model moslashuvchanlik va tezkorlikni oshirgan holda, inson kapitalining barqaror rivojlanishi va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq muammolarni ham kuchaytirmoqda.

O'rganish jarayonida aniqlanganki, raqamli mehnat bozori inson kapitalini yaxlit kasbiy salohiyat sifatida emas, balki alohida vazifalar va algoritmik baholash birliklari orqali iqtisodiy qiymatga aylantiradi. Natijada inson kapitalining sifat jihatlari – tajriba, kasbiy rivojlanish, institutsional himoya va ijtimoiy barqarorlik – ikkilamchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat raqamli platformalar tomonidan yaratilayotgan algoritmik boshqaruv mexanizmlari inson kapitalining real iqtisodiy hissasini to'liq aks ettirmasligini va iqtisodiy qiymatning markazlashuviga olib kelishini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuningdek, raqamli mehnat bozorining kengayishi bandlik imkoniyatlarini miqdoriy jihatdan oshirayotgan bo'lsa-da, sifat jihatidan mehnat munosabatlarining zaiflashuviga sabab bo'layotganini aniqladi. Platforma asosidagi bandlik shakllarida ijtimoiy sug'urta, mehnat huquqlari va uzoq muddatli kasbiy kafolatlarning cheklanganligi inson kapitalining qayta ishlab chiqarilishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa raqamli mehnat bozorini faqat texnologik innovatsiya sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi.

Umuman olganda, maqolada olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, raqamli mehnat bozori platforma iqtisodiyoti doirasida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini qisqa muddatda oshirishi mumkin, biroq institutsional va huquqiy moslashuvsiz ushbu jarayon uzoq

muddatda mehnat bozori barqarorligiga tahdid soladi. Shu sababli raqamli mehnat munosabatlarini tartibga solishda inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda uning ijtimoiy himoyasi, kasbiy rivojlanishi va barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli mehnat bozori va inson kapitali masalalarini kelgusida chuqurroq empirik tahlillar, institutsional islohotlar va normativ-huquqiy mexanizmlar orqali o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Aynan shu yo'nalishdagi izlanishlar platforma iqtisodiyotining ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

De Stefano, V. (2016) The Rise of the "Just-in-Time Workforce": On-Demand Work, Crowdswork and Labour Protection in the Gig-Economy. Geneva: ILO.

International Labour Organization (2021) World Employment and Social Outlook: The Role of Digital Labour Platforms. Geneva: ILO, B. 24–29.

Sen, A. (1999) Development as Freedom. New York: Anchor Books, B. 287–289.

Srnicek, N. (2017) Platform Capitalism. Cambridge: Polity Press.

Standing, G. (2011) The Precariat: The New Dangerous Class. London: Bloomsbury Academic, B. 57–60.

Supiot, A. (2021) The Governance of Work and the Future of Labour Law. Oxford: Oxford University Press, B. 112–115.

Zuboff, S. (2019) The Age of Surveillance Capitalism. New York: PublicAffairs, B. 93–97.